

JAMOL KAMOLNING MUXAMMAS YARATISH MAHORATI

Komiljon Abdikarimovich QARSHIYEV

Filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

komilqarshiyev891@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Jamol Kamol she'riyatining janriy rang-barangligini ta'minlagan muxammas janri va uning shoir ijodida tutgan o'rni, janriy tarovati, g'azalda tasvir qaratilgan g'oya va tushunchaning kengaytirilishi, zamonaviy adabiyotimizdagi poetik funksiyasi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: adabiy tur, janr, uslub, she'riy shakl, musammat, muxammas, g'azal, mavzu, g'oya, an'ana.

НАВЫКИ ДЖАМАЛЯ КАМАЛЯ ПО СОЗДАНИЮ МУХАММАС

Комил Абдикаримович КАРШИЕВ

Доктор философии по (PhD) филологическим наукам

Самаркандский государственный университет

Самарканд, Узбекистан

komilqarshiyev891@gmail.com

Аннотация

В статье обсуждается жанр мухаммас в поэзии Джамалия Камалия, который предоставляет разнообразие жанров, а также его роль в творчестве поэта. Также рассматриваются изобразительные средства мухаммаса, его поэтическая функция в современной литературе.

Ключевые слова: литературный вид, жанр, стиль, поэтическая форма, мухаммат, мухаммас, газель, тема, идея, традиция.

Mumtoz lirik janr va shakllar tasvir qamrovi, hajmi va shakliy qonuniyatlari bilan farqlansa-da, adabiyotning birlamchi vazifasi bo'lmish inson ruhini ma'naviy kamolot sari ulg'aytirishi jarayonida funksional birlashadi, ya'ni ma'nan yetuk, qalban pok, barkamol shaxsni yetishtirishga xizmat qiladi. Ijodkorning tuyg'ular tug'yonidan tug'ilgan fikratini she'rxon yoki kitobxonga yetkazib berishda turli tasvir o'lchamidagi badiiy vosita vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, Jamol Kamol muxammaslari shoirning tuyg'u va kechinmalarini mantiq, poetika, falsafa, estetika qonuniyatlari orqali sermazmun misralarda aks ettiradi va g'azallarining mantiqiy davomi o'laroq yangraydi.

Ma'lumki, besh misrali bir necha bandlardan iborat she'r musammatning muxammas deb ataluvchi turini hosil qiladi.

Muxammaslarning qofiyalanishi gʻazal qofiyalanishining kengaytirilgan koʻrinishi sanaladi. Unda birinchi banddagi misralarning hammasi oʻzaro bir xil, xuddi gʻazal matlaʼsi kabi qofiyalanadi (a – a - a – a - a), qolgan bandlarning dastlabki uch yoki toʻrt misrasi oʻzaro qofiyalanib, soʻnggi toʻrtinchi va beshinchi yoki faqat beshinchi misrasi dastlabki bandga ergashib qofiyalanadi (b – b – b – a – a yoki b – b – b – b - a). Odatda, muxammaslarda taxallus keltiriladi. Muxammas yaratishning oʻziga xos anʼnanalari mavjud boʻlib, ularni adabiyotshunosh Rahmonqul Orzibekov “Oʻzbek lirik poeziyasida gʻazal va musammat” kitobida quyidagi turlarini keltirib oʻtgan: “Musammatning muxammas formasi haqida “Farhangi istilohoti adabiyotshunosi” mualliflari quyidagilarni yozadi: “Muxammas ikki xildir. Biri har bandi besh misralik qilib yozilgan sheʼrdir. Ikkinchisi, biror shoirning gʻazalini olib, gʻazalning har baytiga oʻzidan uch misra qoʻshish bilan yaratiladi”. N.M.Mallayev ham muxammasning ana shu ikki turini koʻrsatib oʻtadi. “Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati”da muxammasning quyidagi turlari qayd etiladi: a) bir shoir mustaqil muxammas yozadi; b) shoir oʻziga yoqqan biror gʻazalga muxammas bogʻlaydi va u taxmis deb ataladi; d) shoir oʻz gʻazaliga taxmis qiladi. e) biror shoir muxammasiga muxammas bogʻlash [7;78].

Adabiyotshunos R.Orzibekov muxammas yaratishning toʻrtinchi turini quyidagicha izohlaydi: “Adabiyot tarixida gʻazalga tazmin musammatlar – muxammas, musaddas, musammanlar bogʻlash anʼanalari ancha keng ildiz otgan, sezilarli adabiy hodisaga aylangan boʻlsa-da, lekin muxammasga muxammas yoxud musamman bogʻlash, gʻazaldan tashqari, muxammaslar asosida ham nazira, tatabbu yoki tavorid xarakteridagi musammat navlari yaratish kam uchraydigan xarakterli faktlardandir. Oʻzbek, turkman, tojik sheʼriyatida shunday yoʻl bilan yaratilgan sheʼr namunalarini Mahtumquli, Mullanafas, Rojiiy Margʻinoniy, Zokirjon Furqat, Faxriy Doʻmoniy, Ochildi Miriy, Salimiy, Nodim Namongoniy, Masehoi Boysuniy ijodida mavjudligini kuzatdik” [7;81].

Jamol Kamolning ijodiy kulliyotida o‘ttizga yaqin muhabbat, diniy-ilohiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-maishiy mavzulardagi muxammaslar mavjud bo‘lib, ularni quyidagi to‘rt guruhga tasniflash mumkin:

1. *Ta’bi xud (mustaqil) muxammaslar* : Ularga “O‘zbekiston”(1.382), “Ey aziz qondosh-qarindosh o‘zligim, turkim mening...” [2;249], “Kitobsiz el ...” [2;251], “Osmon imlar meni ...” [5;13], “Ul nozaninki” [5;26], “Jahon gulzorida men” [5;27], “Ey falastinlik bolam ...” [5;62] kabi muxammaslari kiradi..

2. *Tazmin muxammaslar*: Navoiyning “Asru”, “Qizil, sorig‘, yashil”, “Istangiz” radifli g‘azallariga, Boburning “Xazon yafrog‘i yang‘lig‘...” deb boshlanuvchi, Fuzuliyning “Yo rab, baloyi ishq...” deb boshlanuvchi g‘azallariga, Mashrabning “Emas” radifli, Furqatning “Bulbul”radifli g‘azallariga, Erkin Vohidovning “Do‘st bilan obod uying ...” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan muxammaslari shu guruhga asarlar sanaladi.

3. *Refrenli misra yoki bayt asosiga qurilgan muxammaslar*: “Fayzulla Xo‘jayev ko‘zlari” [1;369], “Janobi Rasuli Akram sallallohu alayhi vassallam vasfida muxammas” [2;248], “Sanobar qayda bor?” misrasi bilan boshlanuvchi muxammas [5;53], “Nafs balosiga mukkasidan ketganlar haqida muxammas” [5;67], “Bizga salom qani?” [5;39], “Xalqni urganni Xudo urgay” [5;66], “Pul uchun ” radifli [5;65], “Behisob deb o‘ylama” [5;19], “Vatan haqida muxammas” [2;247], “Do‘stlar, uyushmoq onidir...” [2;250], “Xivoni ko‘rdim” [2;30] muxammaslari shular jumlasidandir.

4. *Nazira, tatabbu shaklida, muayyan muxammasga bog‘langan muxammas(lar)*: O‘zbekiston Qahramoni, shoir Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” mavzusidagi muxammasiga mavzu, g‘oya, vazn, ritm va hajm jihatdan ergashgan holda yozilgan shoir Jamol Kamolning “Yagona muhabbatim” muxammasini shu turkumdagi asarlar qatoriga qo‘shish mumkin.

Shoirning ta’bi xud, ya’ni mustaqil muxammaslari mavzu, g‘oya, vazn jihatdan mustaqil bo‘lib, ular ham o‘z ichida ayrim kichik guruhlarga bo‘linadi. Masalan, “Ul nozaninki” [5;26], “Jahon gulzorida men” [5;27] kabi muxammaslari “Katta ushshoq yo‘lida” turkumiga mansub bo‘lib, ular hofizlar

uchun mo'ljallangan, shuning uchun muxammaslarda aruziy ohang tarovati bilan sug'orilgan musiqiy ritm yetakchilik qiladi . Shoir mustaqil muxammaslarida mumtoz traditsiyalarga rioya qilgan holda ijodiy yangilanish – novatorlik ham qiladi. Jumladan, “*Jahon gulzorida men*” deb nomlangan muxammasida lirik qahramon sifatida shoir yoki oshiq obrazi emas, balki ma'shuqa obrazi gavalantirilgan va dard-u nolalar ma'shuqa tilidan bayon qilinadi. Bu esa shoir muxammaslarining polifonik xarakterga egaligini ko'rsatgan. Mazkur muxammas go'zal ma'shuqa tilidan bayon qilinganidan nihoyalovchi badda shoir taxallusi keltirilmagan:

*Sarvi qadimki soldi olam ahliga g'avg'o,
Yuzim quyoshidandir oshiq ahliga savdo,
Jahon gulzorida men ajab guli ra'no,
Agar yellarga bersam kokilim yozib nogoh,
Uforu atrin istab ohular bo'lur paydo [5;27].*

Lirik qahramon “*olam ahli*”ning g'avg'osi sarvdek qomati dastidan, “*oshiq ahlining savdo*”si quyoshdek yuzi dastidan ekanligini ta'kidlab, o'zini “*jahon gulzorining guli ra'no*”siga mengzaydi. Bundan anglashiladiki, Jamol Kamol ayol kishi tilidan muxammas bitgan. Bu adabiyot tarixida kamdan-kam uchrovchi hodisa sanaladi. Misralardagi tashbeh (*sarvi qad*), istiora (*yuzim quyoshi, jahon gulzori*), ishtiyoq (*gulzor - gul*), mubolag'a (*ma'shuqa kokilini shamol vositasida taratsa, uning hidi, atridan ohularning to'planishi*) kabi badiiy tasvir vositalari muxammasga ajib tarovat berish bilan birga unda go'zal yor o'z tilidan vasf qilinayotganini anglatadi. Besh bandli mazkur muxammas boshdan oxir mumtoz an'anaviylikning ustunligi xususiyatini o'zida mujassam etgan.

Jamol Kamolning ijtimoiy-siyosiy mavzudagi quyidagi mustaqil muxammasi real voqelikdan ta'sirlanish natijasida tug'ilgan:

*Ey falastinlik bolam, ey sen yuraklar nolasi,
Ey G'azo tuprog'ning qonlarga botgan lolasi,
O't-olovlar ichrasen, yurtning – jahon vayronasi,
Har tarafdin yer-u osmoningga tashlandi juhud,*

Bir quturgan it kabi joningga tashlandi juhud [5;62].

Ko‘rinadiki, Jamol Kamol G‘azo sektorida uzoq yillardan buyon bo‘layotgan Isroil–Falastin urushidan ta’sirlanib, falastilik go‘dak misolida urushning vayronagarchiliklari, dunyodagi siyosiy vaziyatga o‘z munosabatini bayon qilgan. Bunda falastinlik bolaga “*yuraklar nolasi*”, “*G‘azo tuprog‘ining qonlarga botgan lolasi*” kabi tashbehli nidosi ostida uslubiy tarovat aks etish bilan birga Isroil bosqini qoralangan.

*Ko‘ylaging qon, ko‘kraging qon, manglaying qondir bu dam,
Mushtipar, sho‘rlik onang boshingda giryondir bu dam,
Yer-u ko‘k ham chorasiz, holingga hayrondir bu dam,
Chun ilon erdi, yovuz ajdarga aylandi juhud,
Sen go‘dakni biryo‘la yutmoqqa aylandi juhud [5;62].*

Ko‘rinadiki, urush qurboni bo‘lgan go‘dak tasvirini berishda “*peshonasi sho‘r*” iborasi o‘rnida shoir “*manglaying qon*” iborasini qo‘llaydi va bu orqali vayron yurtning nolon farzandi obrazini o‘quvchi ko‘z o‘ngida yanada yorqinroq gavdalantiradi. Bu bandda shoir notinch yurtning farzandi tasviriga “*mushtipar, sho‘rlik ona*”ning yarador bolasi qoshida giryon holatini ham aks ettirib, qayg‘uli holat kartinasini hosil qiladi. Muxammas ballada ruhida yozilgani bois shoir tasvir davomida obyektiv xolislikdan chiqib, falastinlik bolaga bo‘lgan mehrini va isroilliklarga bo‘lgan nafratini yashirib turolmaydi. Bu lirik asarlar uchun xos bo‘lgan muayyan belgi sanaladi. Shu bois: “*Chun ilon erdi, yovuz ajdarga aylandi juhud*”, - deya isroil xalqiga bo‘lgan nafratli munosabatini oshkor ifoda etadi.

*Yoqdi jonimni o‘shal ma‘yus yuzingda iltijo,
Mo‘ltirab yoshlarga to‘lguvchi ko‘zingda iltijo,
Titraguvchi lablaring, unsiz so‘zingda iltijo,
Gar yiroqdin bo‘lsa ham bag‘ringa bosgayman seni,
Qahramonim deb ko‘zim oqiga yozgayman seni [5;62].*

Daslabki uch misradagi “*iltijo*” radifi lirik qahramonning emas, urush qurboni - falastinlik norasta iltijosi bo‘lib, muxammasdagi fikr qaytarig‘ini, mavzuning bosh g‘oyasini o‘zida umumlashtirgan. Shoir yuqoridagi bandda

“*manglayi qon*” degan yangilangan, variantdosh iboradan foydalangan bo‘lsa, bu bandda “*bag‘rimga bosgayman*” degan o‘zbek tilidagi mavjud iboradan va “*ko‘zim oqiga yozgayman*” degan yangi iboradan foydalangan. Ma’lumki, o‘zbek tilida “*ortiq darajada qadrlab, e‘zozlab saqlash*” ma’nosidagi “*ko‘z qorachig‘iday asrash*” iborasi mavjud, ammo “*ko‘zim oqiga yozgayman*” degan somatik ibora faqat Jamol Kamol asarlari leksikasiga taalluqli. Bu frazeologik birliklar orqali shoir o‘z asarining poetik jozibadorligi va leksik-semantik tarovatini namoyon qilgan.

*Jim turar qavming, agarchi necha millondir ular,
Sen bani Odam dema, olifta hayvondir ular,
Garchi musulmdir og‘izda, nomusulmondir ular,
Ko‘rmagaylarmu yovuzlarning jafu-yu jabrini,
Necha yuzlab yosh go‘daklarning G‘azoda qabrini?* [5;62]

Bu bandda ijtimoiy-siyosiy ruh tasviri keskinlashib, Falastindagi oshkora qabohatni ko‘rib, jim turgan jabrdiyda bolaning qavmdoshlarini lirik qahramon: “*bani Odam*” emas, “*olifta hayvon*”, “*nomusulmon*”, - deya ataydi. O‘xshatilmish vazifasidagi “*olifta hayvon*” birikmasida oksimeronning mavjudligi asarning ta’sirdorlik darajasini oshirishga xizmat qilgan. Bandning “*Ko‘rmagaylarmu yovuzlarning jafu-yu jabrini, Necha yuzlab yosh go‘daklarning G‘azoda qabrini?*” - deya ijtimoiy-siyosiy hayqiriqqa ega ritorik so‘roq bilan yakunlanishida shoirning ijodiy uslub qirralaridan biri bo‘y ko‘rsatgan. Quyidagi bandda shoirning falastilik bolaga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaati davom etadi:

*Qolmadi senga, bolam, jabr-u jafodin o‘zgasi,
Erta-kech oh-u fig‘on-u iltijodin o‘zgasi,
Yo‘q magar, bo‘lmas panoh yolg‘iz Xudodin o‘zgasi,
Sen: “Xudoyim”, - de, najotingni yuborgaydir Xudo,
Ul kasofat xaylini kulfatga qorgaydir Xudo* [5;62].

Demak, shoir (bolaning begonasi bo‘lmaydi qabilida) “*bola*”siga “*oh-u fig‘on-u iltijodin*” o‘zga najot yo‘qligini, unga Xudodan o‘zgasi panoh bo‘lolmasligini uqtirib, tasvirdagi ko‘tarinki ohang, shiddatkorlikni biroz

pasaytiradiki, buning zamiridan falastinlik bolasiga bevosita yordam berolmayotganligidan taassufda ekanligi anglashiladi. Bandning umumiy mazmunidan uning semantik markazida, xalq iborasi bilan aytganda, “*Xudoga solish*” na’rasi, faryodi yotganligini anglash mumkin. Lirik xotimada shoir jahon ahliga quyidagicha murojaat qiladi:

*Ey jahon ahli, bu ishning chorasin qilmoq kerak,
Haq jazosin ahli zolim bo‘yniga ilmoq kerak,
Lek juhud boshqa, yahudiy boshqadir, bilmoq kerak,
Qavmi Musodir yahudiy, or-nomus qavmidir,
Qavmi iblisdir juhud, makr-u tajovuz qavmidir ... [2;62].*

Jamol Kamolning “*BMTga maktub*” she’rining mantiqiy davomi bo‘lgan mazkur muxammasda jahon ahlini G‘azoda uzoq yillardan buyon bo‘layotgan Falastin va Isroil urushini tinch yo‘l bilan hal qilishga undaydi. Bu esa shoirning dunyodagi geopoletik jarayonlarga faol munosabat bildirishini ko‘rsatadi. Yakunda yahudiy va juhud qavmlarini farqlash kerakligini aytib, yahudiylarning Muso qavmidan, juhudlarning Iblis qavmidan ekanligini uqtiradi va lirik qahramon bilan yakdillikda o‘zi uchun og‘ir va ayni paytda xavfli da’vat, chaqiriqni jasorat bilan bayon qiladi.

Mazkur mustaqil muxammasda janrning ifodaviy tashqi qobigi an’anaviy bo‘lsa-da, mavzu va mazmun yangilangan bo‘lib, unda quyidagi janriy va badiiy traditsion belgilar saqlanib qolingan:

1. Vazni: *ramali musammani mahzuf* (yoki *maqsur*). Afoili: *foilotun/foilotun/foilotun/foilun*. Taqte’(paradigma)si: - v- - / - v - - / - v - - / - v - (yoki - v ~).

2. Qofiyalanishi: *a – a – a – b – b , v – v – v – b – b . . .* shaklidagi mutlaq qofiyadir.

3. Radifi: *tashlandi juhud, seni, Xudo, qavmidir* kabi asosiy radif va *bu dam, iltijo, ular, o‘zgasi, kerak* singari ikkinchi darajali radiflar.

4. Aruziy ohangdagi so‘zlar: muxammasdagi “*ichrasen*”, “*chun*”, “*o’shal*”, “*bosgaymen*”, “*magar*”, “*oh-u fig‘on*”, “*ul*”, “*qavmi Muso*”, “*bani*

Odam” kabi aruziy ohangdagi, mumtoz adabiyot leksikasidan “qarz”ga olingan soʻz va izofali birikmalar asarga klassik anʼanaviy tus berish bilan birga mumtoz tarovatli soʻzlarning hozirgi oʻzbek adabiy tilida qayta tirilishini ham taʼmin etgan.

Xullas, Jamol Kamolning muxammas yaratishdagi mahorati va muxammaslari shakl va mazmun mutanosibligiga ega. Shoir muxammaslari ishqiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy mavzularda yozilgan boʻlib, nazira muxammaslarida anʼanaviy oshiq va maʼshuqaning vasl-hajr munosabati tasviri berilgan boʻlsa, mustaqil muxammaslarida bir shaxsning tor shaxsiy hislari emas, balki butun bir xalqning orzu-armoni, oʻy-fikrlari oʻz ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Камол, Жамол. Аср билан видолашув. I жилд. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2018. – 492 б.
2. Камол, Жамол. Ёнаётган дала. II жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 441 б.
3. Камол, Жамол. Абодият остонасида. III жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 461 б.
4. Камол, Жамол. Шеър санъати. IV жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 444 б.
5. Камол Ж. Анвармирзо хикоятлари. V жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 456 б.
6. Камол, Жамол. Булбулнома. VI жилд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 477 б.
7. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976.
8. Хасанов Ш. Истедоднинг рангин жилolari //Шарқ юлдузи, 2019. – №1. – Б. 9.
9. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 461 б.
10. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 559 б.